
Akademik litseyda 206-guruh o'quvchilarining ota onalari bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi

Joriy yilning 15-sentabr sanasida akademik litseyda **206-guruh o'quvchilarining ota onalari bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi.** Yig'ilishini akademik litsey ijrochi direktori **Dilshodxon Islomov olib bordi.** Yig'ilishda 1-yil sarhisobi bo'yicha o'quvchilarning bir yil davomida erishgan yutuqlari, o'quv mashg'ulotlariga qatnashish davomati, o'zlashtirish ko'rsatkichlari muhokama qilindi. Ushbu guruhda o'zlashtirishi sust o'quvchilarning ota-onalari, guruh rahbarlari va fan o'qituvchilariga tanbeh berildi. **3 oy muddatda** ota-onalar bilan hamkorlikda ushbu o'quvchilarni ko'zlangan maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlarni amalga oshirish bo'yicha alohida ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilish yakunida o'zining bilimi, iqtidori va namunali xulqi-odobi bilan alohida o'rnak ko'rsatgan o'quvchilarning ota-onalari Tashakkurnoma bilan taqdirlandi.



SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati